



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
Axmedov Jaloliddin Oribovich	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
Baxramova Malika Muzaffarovna	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
Ergasheva Mehriyona	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
Maksetova Nurjamal Kuatovna	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
Malikova Xurshida Ikramovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
Muxammadova Ozoda Muzrabovna	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
N. G. Pulatova	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
Журабаев Абдукарим Маматкулович	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна	



INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ALOHIDA EHTIYOJLARGA EGA O'QUVCHILARNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVLARI

Nazarova Dildora Asatovna

Oriental universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi" kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Abdurashidova Feruza Qaxramonovna

Oriental universiteti Magistri pedagogika fakulteti 101-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning psixologik-pedagogik mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, psixologik xavfsiz muhitni shakllantirish, multidisiplinar hamkorlikni tashkil etish hamda ota-onalar bilan tizimli muloqotning o'quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri asoslab berilgan. Shuningdek, "Portage", "Little Steps" va "Numicon" kabi zamonaviy rivojlantiruvchi metodlarning inklyuziv ta'lim jarayonidagi samaradorligi yoritilib, ularni qo'llashning amaliy afzalliklari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy ta'lim siyosati uyg'unligi asosida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, psixologik-pedagogik yondashuv, alohida ta'lim ehtiyojlari, individual rivojlanish, psixologik xavfsizlik, multidisiplinar hamkorlik, rivojlantiruvchi metodlar.

Abstract: This article examines the psychological and pedagogical mechanisms for supporting students with special educational needs in inclusive education settings. The study highlights the importance of a learner-centered approach, the creation of a psychologically safe learning environment, multidisciplinary collaboration, and systematic parent involvement in promoting students' cognitive, emotional, and social development. Particular attention is given to the analysis of modern developmental methods such as "Portage," "Little Steps," and "Numicon," demonstrating their effectiveness in individualized learning. Based on the integration of international experience and national educational policy, the article proposes a comprehensive model for supporting learners with special educational needs.

Key words: inclusive education, psychological and pedagogical approach, special educational needs, individualized development, psychological safety, multidisciplinary collaboration, developmental methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолого-педагогические механизмы поддержки учащихся с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. В работе обоснована значимость лично-ориентированного подхода, формирования психологически безопасной образовательной среды, организации междисциплинарного взаимодействия специалистов, а также системного сотрудничества с родителями для обеспечения когнитивного, эмоционального и социального развития учащихся. Особое внимание уделено анализу современных развивающих методик ("Portage", "Little Steps", "Numicon") и их эффективности в индивидуализированном обучении. На основе синтеза международного опыта и национальной образовательной политики предложена комплексная модель поддержки учащихся с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, психолого-педагогический подход, особые образовательные потребности, индивидуальное развитие, психологическая безопасность, междисциплинарное взаимодействие, развивающие методики.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga asoslanib, barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar ham umumiy ta'lim jarayonining to'laqonli va faol subyektlari sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'limning mohiyati bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning rivojlanish sur'atlarini inobatga olish hamda jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar ko'pincha o'ziga xos kognitiv, psixologik yoki sensor xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuvni, maxsus pedagogik metodlar hamda moslashtirilgan o'quv strategiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Shu bois inklyuziv ta'lim faqat akademik bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchining emotsional farovonligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi [2-5].

Psixologik yondashuvlar inklyuziv ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat ta'limni individuallashtirishga, balki o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, emotsiyalarni boshqarish va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog, logoped va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi, uning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi [6].

Bio-psixo-ijtimoiy yondashuv alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashning eng kompleks va ilmiy asoslangan yo'nalishlaridan biridir. Ushbu modelga ko'ra, bolaning rivojlanishi faqat uning individual psixologik holati yoki kognitiv qobiliyatlari bilan emas, balki u yashayotgan ijtimoiy, oilaviy va pedagogik muhit bilan ham chambarchas bog'liqdir [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu yondashuv bolani "ajratilgan obyekt" emas, balki oila, maktab, sog'liqni saqlash tizimi, psixologik xizmatlar va keng jamoatchilik o'rtasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy tizimning faol subyekti sifatida talqin etadi. Shu sababdan, bolaning ehtiyojlarini chuqur o'rganish, uning rivojlanishidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda individual ta'lim strategiyasini ishlab chiqish psixolog, maxsus pedagog, logoped, o'qituvchi va boshqa mutaxassislar tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishi zarur.

Bio-psixo-ijtimoiy yondashuvning asosiy kuchi shundaki, u bolaning rivojlanishini bir vaqtning o'zida uch o'lchovda ko'radi [8,9]:

- biologik – genetik omillar, sog'liq holati, sensor tizimlar faoliyati;
- psixologik – idrok, diqqat, emotsional barqarorlik, motivatsiya;
- ijtimoiy – oila muhiti, tengdoshlar bilan munosabat, ta'lim muassasasidagi psixologik-ijtimoiy iqlim.

Mazkur yondashuv erta tashxislash, individual rivojlanish dasturini to'g'ri rejalashtirish va ta'lim jarayonida uzoq muddatli barqaror natija olishga xizmat qilishga yo'naltiriladi. Shu bois u inklyuziv ta'lim tizimining ilmiy asoslangan markaziy tarkibiy unsure sifatida ko'riladi.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim muassasasida yaratilgan psixologik xavfsizlik muhitiga bog'liq [10,11].

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologik xavfsizlik bolaning o'zini qo'rqmasdan ifoda etishi, xatodan uyalmasligi, tajovvuz yoki kamsitishdan himoyalangan bo'lishi, tengdoshlari va o'qituvchilari tomonidan qabul qilinishidir.

Xususan, alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun bunday muhit quyidagi jihatlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi:

- emotsional barqarorlikni shakllantiradi, chunki bola o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda eta oladi;
- ijobiy o'quv motivatsiyasini oshiradi, chunki o'quvchi o'zini xavfsiz sezgan muhitda faolroq bo'ladi;
- ijtimoiy moslashuvni tezlashtiradi, chunki bola tengdoshlari bilan tabiiy aloqa o'rnatishga qodir bo'ladi;
- o'ziga ishonchni kuchaytiradi, bu esa akademik muvaffaqiyatning ham asosiy manbaidir.

Reabilitatsiya markazlari, ixtisoslashtirilgan hamda umumiy ta'lim muassasalarida psixologik xavfsizlikni ta'minlash pedagogik-psixologik faoliyatning ajralmas qismidir. Mutaxassislarning asosiy vazifalaridan biri bolaning xavotir darajasini kamaytirish, ijobiy muloqot muhitini yaratish, psixologik tahdidlarni bartaraf etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishdan iborat bo'ladi.



Bu jarayon o'qituvchi, ota-ona va psixologning hamkorlikdagi harakatlari orqali yanada samarali bo'lib, xavfsizlik muhiti shakllangan ta'lim muassasasida alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi.

Alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning amaliy jihatlaridan biri rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishdir. Bugungi kunda xalqaro miqyosda tan olingan qator metodikalar mavjud bo'lib, ular bolaning individual rivojlanish sur'ati, ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan. Inklyuziv ta'limning milliy modelini yaratishda rivojlangan mamlakatlarda bu borada qo'llanib kelinayotgan mazkur metodik yondashuvlardan foydalanish samarali natijalarga olib keluvchi omil sanalib, ulardan ba'zilarini yoritish o'rinli, deb hisoblaymiz.

"Portage" dasturi 0-6 yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun yaratilgan bo'lib, ayniqsa, rivojlanishida sustlik kuzatiladigan bolalar uchun samarali hisoblanib, u:

- bola bilan shaxsiy ishlash rejasini yaratadi;
- kichik, aniq, o'lchab bo'ladigan vazifalar beradi;
- oilani jarayonga faol jalb etadi;
- har bir muvaffaqiyatni monitoring qilish imkonini beradi.

"Little Steps" metodikasi bolalarni kichik bosqichlarda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, motor ko'nikmalar, nutqiy rivojlanish, kognitiv faoliyat, kundalik hayot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'rgatadi. Metodning yuqori ustunligi har bir qadam kichik, sodda va oson egallanadigan bo'lishidida namoyon bo'ladi.

"Numikon" metodikasi vizual, sensor va manipulyativ materiallarga asoslangan matematika o'qitish tizimidir. U, xususan, diskalkuliya, diqqat yetishmovchiligi, kognitiv qiyinchiliklarga ega bolalar uchun juda samaralidir. Metodning afzalliklari:

- "ko'rib o'rganish" prinsipiga asoslanadi;
- abstrakt matematik tushunchalarni konkret predmetlar orqali o'rgatadi;
- bolada mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- o'quvchining muvaffaqiyatni tez his qilishiga yordam beradi.

Bayon etilgan barcha metodlar individual yondashuvga asoslanib, bolaning emotsional, nutqiy, motor va kognitiv rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda ota-onalar bilan samarali hamkorlik pedagogik-psixologik yondashuvning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi-ki, oilaviy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lganda bolalarning rivojlanish sur'atlari va ta'limdagi muvaffaqiyati sezilarli darajada oshadi. Ota-onalar farzandi rivojlanishining kundalik jarayonini eng yaqin kuzatuvchi shaxslar bo'lgani uchun, ular tomonidan berilgan ma'lumotlar psixologik xizmatlar uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Psixolog ota-onalar bilan muntazam muloqot olib borib, bolaning ehtiyojlari, emotsional holati va rivojlanish dinamikasi haqida fikr almashib borishi lozim.

Samarali hamkorlik:

- ota-onalarni maslahat jarayoniga jalb qilish;
- bolaga uy sharoitida qanday yordam berish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish;
- ota-onalarning ehtiyoj va fikrlarini inobatga olgan holda, individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish;
- ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, ya'ni farzandini tushunish mexanizmlarini o'rgatish kabi unsurlardan iborat bo'ladi.

Ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining rivojlanish strategiyasini yanada barqaror qiladi va ta'lim jarayonidagi natijadorlikni oshiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida psixolog va pedagog o'rtasidagi yaqin hamkorlik bolaning ta'limiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Pedagog o'quv jarayonini tashkil etuvchi mutaxassis sifatida bolaning akademik ehtiyojlarini yaxshi biladi, psixolog esa bolaning ruhiy holati, emotsional ehtiyojlari va xulqiy o'ziga xosliklarini tahlil qiladi. Shu bois ikki mutaxassisning uzviy hamkorligi quyidagi natijalarni beradi:

- 1) bola uchun moslashtirilgan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish;
- 2) bola xulqidagi o'zgarishlarni erta aniqlash;

- 3) stress, qo'rquv yoki moslashuv muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish;
- 4) o'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini olish;
- 5) ta'lim jarayonini psixologik jihatdan sog'lom va samarali tashkil etish.

Mazkur hamkorlik, ayniqsa, multidisiplinar yondashuvda muhim hisoblanadi. Psixolog, logoped, maxsus pedagog va sinf o'qituvchisi birgalikdagi faoliyati alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining rivojlanish trayektoriyasini to'g'ri belgilashga imkon beradi.

Alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar - turli xil rivojlanish xususiyatlari tufayli alohida yondashuvni talab qiluvchi bolalardir. Ular o'zlarining intellektual, emotsional, sensor yoki jismoniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur toifaga kiruvchi o'quvchilar ko'pincha an'anaviy ta'lim metodlari yordamida to'liq rivojlana olmaydi, shu bois ularga differensial va moslashtirilgan yondashuv zarur. Mazkur bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar ularning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchini individual rivojlanish trayektoriyasiga moslashtiradi va uning ichki salohiyatini ro'yobga chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar bilan ishlashda psixologik-pedagogik yondashuvlar inklyuziv ta'limning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash jarayoni nafaqat akademik o'zlashtirishni ta'minlashga, balki ularning emotsional farovonligini mustahkamlash, psixologik xavfsizlik darajasini oshirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlar bolaning individual ehtiyojlari, ruhiy holati, rivojlanish sur'ati va ijtimoiy tajribasini inobatga olgan holda ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

Jarayonda o'ituvchi, logoped, maxsus pedagog, psixolog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi bolaning ta'limiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarni tatbiq etish alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, jamoadagi ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlab, akademik muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi, bolalarning ichki salohiyatini to'liq namoyon etish, jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashish va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishiga zamin yaratadi.

Bola rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi uzluksiz hamkorlik imkonini kuchaytirish maqsadida:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020.
3. "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF- 60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
6. Broderick, A., Mehta-Parekh, H., Reid, D. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. *Theory Into Practice*, 44(3), 194-202.
7. Dewsbury, B., Brame, C. (2019). Inclusive Teaching. *CBE Life Sciences Education*.
8. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. *British Educational Research Journal*. 28.
9. Nazarova, D. A. Inklyuziv ta'lim asoslari. - Toshkent. "Lesson press" 2022.
10. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 7-12.
11. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021, ISSN: 2660-5643/ Page 149.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.